

**Jizzax viloyat Xalq ta`limi pedagog
xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti**

**“O`zbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro
terrorizmga qarshi kurashi”**

(metodik xat)

Tuzuvchi: U.Qurbonov ijtimoiy fanlar va ma'naviyat kafedrası o'qituvchisi

Jizzax- 2005

O'zbekistonda din sohasidagi ilmiy asoslangan siyosat.

Ko'pgina rivojlangan davlatlarda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishga muayyan darajada erishilgan bo'lsada, uni yanada takomillashtirish jarayoni davom etmoqda. Fuqarolik jamiyati tushunchasi asosida inson erkinligi, uning barcha ko'rinish va munosabatlarda namoyon bo'lishi g'oyasi yotadi.

Bugungi kunda ekstremizmning eng keng tarqalgan shakli bu diniy ekstremizmdir. Diniy tafakkurning siyosiy lashuv jarayoni global miqyosda, shu jumladan Markaziy Osiyo mintaqasida ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Konfessiyalararo munosabatlarda inson erkinligini ta'minlash uchun vijdon erkinligi va tolerantlik tamoyili hal qiluvchi ahamiyatga ega. Fuqarolik jamiyatida har bir inson istagan diniga e'tiqod qilishi yoki hech bir dinga e'tiqod qilmasligi mumkin. Bu inson ruhiy erkinligining hal qiluvchi tamoyili va ajralmas xususiyatidir. Shu sababli fuqarolik jamiyatini quruvchi barcha davlatlarda vijdon erkinligi tamoyili Konstitutsiya darajasida kafolatlangan. Mamlakatimizda fuqarolarning o'z diniy huquqlarini amalga oshirishlari uchun yaratilgan sharoitlarni diniy tashkilotlar misolida ham ko'rish mumkin.

Hozirda respublikamizda 2186 ta diniy tashkilot faoliyat yuritmoqda. Mustaqillik sharofati tufayli ularning faoliyati tom ma'noda tiklandi va rivoj topmoqda. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil qilingan, diniy va dunyoviy fanlar bo'yicha bilim beriladigan Toshkent islom universitetining faoliyat ko'rsata boshlashi esa bu yo'nalishdagi muhim qadamlardan bo'ldi.

Bundan tashqari fuqarolarga islom dinining ezgu mohiyatini tushuntirish maqsadida O'zbekiston musulmonlari idorasining "Hidoyat" oylik jurnali va "Islom nuri" gazetalari muntazam chop etilmoqda. Respublika televidenitesi orqali "Ziyo" studiyasi va "Hidoyat sari" ko'rsatuvlari muntazam berib borilmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ko'plab qadimgi diniy-madaniy obidalar tiklandi, ta'mirlandi, qayta qurildi, yangi yodgorlik majmualari yaratildi. Buyuk mutafakkirlarimizning yubileylari mamlakatimiz va jahon miqyosida keng nishonlandi. Ro'za va qurbon hayitlari bayram kunlari deb e'lon qilindi. Davlat tomonidan haj safariga borish uchun keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratildi.

Fuqarolarda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish.

Tarix o'zga hududlarni zabt etish maqsadida ishlatiladigan urush qurollari uzluksiz takomillashib borganini ko'rsatadi. U nayzalardan tortib avtomatik qurolgacha, zambaraklardan tortib yer yuzining har qanday nuqtasigacha bexato yetib boradigan qit'alararo ballistik raketalarigacha bo'lgan uzoq takomil yo'lini bosib o'tdi. Bu qurollar bosib olinishi kerak bo'lgan hududlar aholisini jismonan yo'q qilishga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, o'zga hududlarni zabt etish uchun ularning aholisini mavh etish shart emas. Zero, ongi va shurii zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari "ma'qul" yo'nalishga o'zgartirilgan yerlik aholisi ko'magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz ichida o'zlarining g'ayriinsoniy va g'ayriislomiy g'oyalarini tarqatishga harakat qilayotgan diniy ekstremistlar ham ana shunday g'araziy maqsadlarni, ya'ni yoshlarni

chalg'itish, ular yordamida mamlakatni o'z taraqqiyot yq'lidan chetlatib yuborishga intiladilar.

“Bugungi kunda,- deb yozadi Yurtboshimiz - insoniyat qo`lida mavjud bo`lgan qurol-yarog`lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta havf-insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo`layotgan kurashlar ko`p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmashlik lozim.”

Shunday sharoitda mohiyatan g`ayriinsoniy, shu jumladan diniy ekstremistik g`oyalarga qarshi tura olish uchun kishilarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirish markaziy masalalardan biriga aylanmoqda. Immunitet deganda tibbiyotda organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlash, o`zini turli, shu jumladan zararli ta`sirlardan himoya qilishga qodir bo`lgan hususiyatlari majmui tushuniladi. Immunitet kishi vujudining turli infeksiyon kasalliklarga berilmaslik xususiyatini ham ifodalaydi.

Insonning tug`ma bo`lgan ana shu umumiy immunitet tizimidan farqli ravishda mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur. U daxlsizlikni ta`minlashga xizmat qiladi.

Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri bu bilimdir. Ammo bilimlar ko`p. Diniy ekstremizm va terrorizm tarafdorlari ham muayyan bilimlarga tayanadilar va uni omma ongiga singdirishga harakat qiladilar. Demak, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob`yektiv bo`lishi, voqeylikni to`g`ri va to`liq aks ettirishi, inson ma`naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Bu bir tomondan. Ikkinchi tomondan, bu bilimlar o`z mohiyat e`tiboriga ko`ra, Vatan, millat, insoniyat manfaatlari bilan uzviy bog`liq bo`lmog`i kerak. Fuqarolarimizning asl islom haqida xolis va yetarli bilimga ega bo`lishlari diniy ekstremizmga qarshi immunitetni shakllantirishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi.

Mafkuraviy immunitetning ikkinchi asosiy unsuri ana shunday bilimlar zahirida shakllandigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo`lsa, uning zahirida yuzaga kelgan baholar, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy infeksiyalar yo`lida mustahkam qalqon bo`lib xizmat qiladi.

Asl islom haqida muayyan bilimlarga ega bo`lish, uning bayrog`i ostida taqdim etilayotgan g`oyalar, qarashlar va harakatlarni to`g`ri baholash, ularning mohiyatan islomiy qadriyatlarga butunlay zid ekanini anglab yetishga xizmat qiladi, degan xulosani chiqarish imkonini beradi. Bilimlar va qadriyatlar tizimi ham mafkuraviy immunitetning mohiyatini to`liq ifoda eta olmaydi. Zero, mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim unsuri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma`rifiy sohalardagi mo`ljal va maqsadlar tizimi bilan bo`g`liq. Ana shunday aniq tizim bo`lmas ekan, hoh alohida inson, hoh millat yoki jamiyat bo`lsin, goh oshkora, goh pinxona ko`rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh berishi amri maholdir.

Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda yot g`oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo`qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o`z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikaning o`rni katta. U ijtimoiy institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshiriladigan g`oyaviy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma`naviy ishlar majmuini to`g`ri tashkil etilgan butun tarbiya tizimini qamrab oladi.

Prezidentimiz ta`kidlaganlaridek, “Millat bor ekan, milliy davlat bor kan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an`ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o`z ta`siriga olish,

uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o`z manfaati yo`lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy havf sifatida saqlanib qolishi muqarrar”.

Shunday ekan, voyaga yetayotgan har bir farzandimizni kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni ta`minlashimizning asosiy shartlaridn biri bo`lib qolaveradi.

Terrorizmning asl mohiyati

Jahondagi ko`pgina davlat va jamoat arbobloari, yirik olimlar, mutaxassislar, ayniqsa, yoshlar dunyoni tinchlik hukmron bo`lihsi, har qanday havfning oldi olinishidan manfaatdor ekanliklarini sezmoqdalar va buning uchun barcha kuch, imkoniyatlarni safarbar etmoqdalar. Taasufklar bo`lisnki, o`tgan og`ir jinoyat butun dunyoga insonlar boshiga katta havf-xatar solmoqda, zaminimiz tinchini buzmoqda.

Terrorchilik o`ta murakkab jinoiy hodisadir. Bugungi kunda “Terror”, “Terrorizm” “Terrorchilik harakati”, “Davlat terrorizm”, “Xalqaro terrorizm” kabi huquqiy atamalarining har birini tahlil qilishga ehtiyoj sezilmoqda.

Terrorizm mavjud tuzumga qarshi siyosiy kurash olib borish, odam o`dirish to`sqinlik qilayotgan guruh (jamiyat) rahbari joniga suiqasd qilish bilan karakterlanadi. Uning tarixi uzoq o`tmishga boroib taqaladi. xalifa Abu Bakr Siddiq (632-634) vafotlaridan so`ng halifalik qilgan Hazrat Umarning o`limi (634-644) va hazrat Usmonning (644-656) o`ldirilishi bunga misol bo`ladi. Hazrati Aliga qarshi chiqqan diniy ekstremistlar, ya`ni 12000 kishilik horijiylar “Bizning yo`limizdan bormaganlar kofirdirlar”-dedilar. Ular hazrati Alini (656-661) namoz o`qigani kelayotganida orqasidan hanjar urib o`ldirdilar.

Abu Rayhon Beruniy ham “O`tmishdan qolgan yodgorliklar” kitobida mana shunday jirkanch voqealar hanjar urib o`ldirdilar.

Ba`zilar terrorizmni bundan 150 yil burun bo`lgan, deb hisoblaydilar va uni Yevropadagi anarxistlarning buzg`unchilik ishlariga bog`laydilar. Narkoterrorizm, bioterrorizm, ijtimoiy terrorizm, kompyuter tizimi yordamida terrorchilik harakatini sodir-etish kiberterrorizm kabi turli terroristik usullar mavjud. Masalan, Rossiyada narodniklar va keyinroq eserlarning siyosiy terroristik harakati (Stalinning-SSSR dagi va Gitlarning Germaniyadagi siyosati), o`rta asrlarda diniy terrorizm (salb yurishlari)ham bo`lgan. Shuningdek bolshevizm ham terrorizmdan foydalanganligini e`tirof etiladi.

1928 yilda Misrda hasan-al Banno “Ixxon ul-muslimin” (“Muslimin birodarlar”) jamiyatini tuzadi ham “Fan ul-mavt” (O`lim fani) kitobini yozadi. 1980-1990yillarda 30 ga yaqin mamlakatlarda ixvonlar ish ko`ra boshladilar. “Jamoati al-muslimin” guruhi esa o`zining terrorchilik ish usulibilan ajralib turardi. Misr harbiy tribunali bu guruhni g`ayriqonuniy deb jazoga tortganidan so`ng ham guruh tarqalib ketmay, “At-takfir val hijro” nomi bilan faoliy olib bordi 1981 yilda suiqasd uyushtirilib prezident Anvar Sadat o`ldirilgandan so`ng ,”Musulmon birodarlar” diniy ekstremistik tahskiloti rahbari qamoqqa olindi.

Islom ekstremistlarning yana bir guruhio paydo bo`ldi va u “Al jihod al-islomiy” nomi bilan bugungi kunda ham terrorchilik harakatlarini sodiretmoqda.

1994 yilda Afg`onistonda yuzaga kelgan “Tolibiy” diniy-siyosiy kuchning oyog`i qayerga yetsa, o`sha yerda inson haq-huquqi toptaladi. Qishloqlar vayron qilindi. Qashshoqlar talandi.

Xalqaro terrorizm

Xalqaro terrorizm- biron bir davlatdagi terrorchilarning o`z harakatlarini u yoki bu davlat hududidan tahs qariga chiqib, davom ettirishdir.

Terrorchilarning biron bir horijiy davlatga joylashgan xalqaro terrorizmning o`ziga xos xususiyatlarini ko`rsatib turadi.

Masalan:

- 1) terrorchilar ham jinoyat qurbonlari ham bir davlatga mansub yoki bir necha davlatga tegishli bo`lishi mumkin. Ammo jinoyat shu davlatdan tahs qarida sodir etilgan bo`ladi.
- 2) Terrorchilik harakati xalqaro himoya ostidagi shaxslarga qaratilgan bo`ladi
- 3) Terrorchilik harakatlariga tayyorgarlik bir davlatda amalga oshirilib, jinoyatning o`zi esa ikkinchi davlat hududida sodir etiladi
- 4) Terrorchilar bir davlat hududida terrorchilik harakatini sodir etib, ikkinchi davlat hududiga o`tib yahsirinishi mumkin. Pokistonda 37 ta, Afg`onistonda 22 ta alohida lagerlarda terrorchi jinoyatchilar tayyorlanadi. 1990-1999 yillar davomida 29 mingdan ortiq Xindiston fuqarolari terrorchi guruhlar tomonidan o`ldirilgan. Bir yilda dunyo bo`yicha 320 tadan 660 tagacha terrorchilik harakatlari sodir etilib, minglab begunoh aholi qurbon bo`ldi

Terrorchilik tashkilotlari haqida

Terrorchilik tashkilotlarining aksari yashirin faoliyat ko`rsatadi. Ularnng tasodifiy harakatlari keltiradi, begunoh insonlar hayotiga chang soladi, qalbini jarohatlaydi. Shu bois ularning qora niyatlariga chek qo`yish, buzg`unchiliklarining oldini olish, millatlar osoyishtaligini ta`minalsh maqsadida terrorizmga qarshi kurash boshlab yuborildi.

Hozirgi kunda dunyoga havf solib turgan quyidagi terrorchilik tashkilotlari mavjud

1. **“Abu Nidol” tashkiloti (rahbari vafotidan so`ng bu tashkiloti faoliyat ko`rsatmagan)**
2. **“Abu sayyof” guruhi (yaqin Sharq)**
3. **“Qurollangan Islom” guruhi (Jazoir)**
4. **“Al Qoida” (asos baza), (Afg`oniston)**
5. **“Al jihad” (Misr)**
6. **“Jamoal islomiy” (Misr)**
7. **“Harakt al mujohid” (Kashmir)**
8. **“Xamas” (Yaqin Sharq)**
9. **“Xizbulloh” (Yaqin Sharq)**
10. **“Turkiston islom partiyasi” (Markaziy Osiyo)**
11. **“Falastin islom jihodi”**
12. **“falastin ozodligi fronti”**
13. **“Falastin ozodligi xalq fronti”**
14. **“falastin ozodligi xalq fronti-umumiy qo`mondonlik”**
15. **“AUM Sinrikyo” (yaponiya, uning rahbari xibsga olingach, tashkilotning faolligi pasaydi)**
16. **“Bask ozodlik harakati” “Eta” (Ispaniya)**
17. **“kahane Xay” (Xitoy)**
18. **“qurdiston ishchilar partiyasi” (Turkiya)**
19. **“Inqilobiy xalq kurashi” (Turkiya)**
20. **“inqilobiy halahsi”-ELA (Gretsiya)**
21. **“17 noyabr inqilobiy tashkiloti” (Gretsiya)**

22. **“Tamil Ilamani ozod qiluvchi yo`lbarlar” (Shri-Lanka)**
23. **“Mujohiddini Xald” (Eron)**
24. **“Milliy ozodlik armiyasi” (Venesuela)**
25. **“Kolubmiya inqilobiy qurolli kuchlari” “FARC” (Kolumbiya)**
26. **“Kolumbiya o`zining o`zi mudofa qilish Birlashgan KUchlari”-“AUG” (Kolumbiya)**

“Oydin yo`l”-“Sendero” (Peru)

Bular faqat o`z faoliyatini bildirgan yashirin terrorchi tashkilotlardir.

Shuni qayd etish kerakki, ba`zi ma`lulotlarda 214 ta ayrim manbalarda dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari faoliyat ko`rsatishi ta`kidlangan.

So`nggi paytlarda Rossiya terrorchi tashkilotlarining ro`yxatini tuza boshladi. Hozirda bu qora ro`yhatga quyidagi terrorchilik tashkilotlari kiritildi:

“Ichkeriya va Dog`iston xalqlari kongressi”

1998 yil Sh Basayev va M Udugov tomonidan Chechenistondagi arab emissarlari ko`magida tuzilgan. Uning faoliyati Rossiyaning musulmonlar yashaydigan mintaqalarida ekstremistik va ayirmachilik g`oyalarini yoyishga va terrorchilik harakatlari sodir etishga qaratilgan. Pirovard maqsadi va Kavkazda islom xalifaligini tuzish.

“Al-Qoida” (Asos, Baza)

1988 yilda Usoma-bin Laden tomonidan tuzilgan. Tashkilotning o`zagi Afg`onistondagi jangovor harakatlarda ishtirok etgan arablardan iborat bo`lgan. 1990 yil o`rtalarida xalqaro terrorchilik tuzilmasiga aylandi. Al-Qoidaning jangarilari ko`plab xalqaro terrorchilik xarakatlariga aloqadordir.

“Asbat al-Ansor” tashkiloti

1985 yilda shayx Hishom Shreyda tomonidan tuzildi. Uning shtabi Livanda joylashgan, yashirin faoliyat ko`rsatadi. Asosan buyurtmalarni bajaradi va boshqa ekstremistik tashkilotlarga maxsus tayyorgarlikka ega jangarilar yetkazib beradi. Usoma-bin Ladenning tashabbusiga ko`ra “Asbat al-Ansor” lagerida jangarilar va ko`ngillilar qayta tayyorgarlikdan o`tib, qaynoq nuqtalarga jumladan Chechenistonga jo`natilgan. Tashkilot AQSh, Isroil va g`arbiy Yevropaning qator davlatlarini o`zining dushmani deb e`lon qildi.

“Muqaddas urush tashkiloti”

Maqsadi Misrda dunyoviy boshqaruvni yo`q qilishdir. U ko`plab mamlakatlarda, xususan Yaqin Sharqda, shuningdek, Rossiyaning musulmonlar zich yashaydigan mintaqalarda o`z emissarlarga ega. Bu shaxslar shug`ullanayapti. Tashkilot a`zolari 1984 yilda mamlakat ichki ishlar vaziriga, 1990 yilda esa parlament raisiga suiqasd uyushtirganlar.

“Islom guruhi” (Al-Jamol al-Islomiya)

Usoma bin-Laden tuzgan islom fronti tarkibiga kiradi. Faoliyati Misrda dunyoviy boshqaruvni yo`qotishga qaratilgan Chechenistondagi noqonuniy qurolli guruhlariga moliyaviy yordam ko`rsatadi. Jangarilar tayyorlab dunyoning qaynoq nuqtalariga yuboradi, xayriya fondlari va tashkilotlari niqobi ostida tashviqot-targ`ibot razvedka-qo`poruvchilik ishlari bilan shug`ullanadi.

“Musulmon birodarlar”

Butun dunyoda islomiy bo`lmagan hukumatlarni ag`darib, “buyuk islom xalifati” tuzishni maqsad qilib qo`ygan. Uning faoliyati qator Yaqin Sharq mamlakatlari (Suriya va Iordaniya) da taqiqlangan. Faoliyatining asosiy ko`rinishlari diniy kelishmovchiliklarni avj oldirish, har qanday hududda harbiy jihod e`lon qilish.

“Lashkari Toiba”

Pokistondagi harbiylashgan, ekstremistik vahhobiylar guruhi. Maqsadi Jamma va kashmir viloyatlarini Pokistonga qo`shib olish, Xindiston hududida johid harakatlarini yoyish. Turli terrorchilik tashkilotlariga moliyaviy ko`mak berish, uning o`quv markazlarida pokistonlik, afg`onistonlik, sudanlik yo`riqchilar rahbarligi ostida 500 nafardan ziyod jangarilar tyyorgarlik ko`rgan.

“Islom guruhi”

O`tgan asrning 40-yillarida tashkil etilgan. Pokiston Afg`oniston chegarasida joylashgan lagerda jangarilar lagerda jangarilar tayyorlaydi. Bu tashkilotning emissarlari Rossiyaning musulmonlar ko`pchilikni tashkil etadigan mintaqalarida ayrimachilik kayfiyatini tarqatish bo`yicha tashkiliy-tashviqot ishlari olib bordilar.

“Tolibon”

1994 yilda Afg`onistonda ekstremistik harakat sifatida tashkil topdi. O`z faoliyatida terrorchilik usullaridan foydalanadi. Usoma-bin Laden ko`magida tolibonlar Markaziy osiyo davlatlarida diniy-ekstremistik harakatlarini keng yoyishga urindilar.

“Ijtimoiy islohotlar jamiyati”

Shtabi Quvaytda joylashgan. Jamiyat u yerda nodavlat tashkilot maqomiga ega. Aslida esa hayriya dasturlari niqobi ostida “Musulmon birodarlar” uyushmasining bosh maqsadi kabi-butun dunyoda islom xalifaligini tuzishga xarakat qilishdir. Asosiy faoliyat shakllari-diniy kelishmovchiliklarni yoyish, jamiyatni bo`lib tashlash, Shimoliy kavkazda harbiy jihadni yashirin tarzda moliyaviy ta`minlash.

“Islom merosini tiklash jamiyati”

Shtabi Quvaytda joylashgan bo`lib, nodavlat tashkilot sifatida, xayriya faoliyati niqobi ostida “Ijtimoiy islohotlar jamiyati” bilan bir xil maqsadlar uchun kurashdi.

“Xizbut-tahrir al-islomiy” (“Islom ozodligi partiyasi”)

Bu partiyaning ham maqsadlari “Musulmon birodarlar” tashkilotiniki bilan bir xil. Yaqin sharq va qator MDH davlatlari hududida uning faoliyati taqiqlangan.

“Hizbut-tahrir al-islomiy” (“islom ozodligi partiyasining”) Moskvaning bo`linmasini Rossiya Federatsiyasi IIV va Federal xavfsizlik xizmati (FXX) hamkorlikda zararsizlantirdi. Bu partiya o`z ta`sirini Rossiya hududida yoyishga intilgan.

Tashkilot dastlab O`zbekistonda, unga qo`shni davlatlarda shariat boshqaruvini joriy etish, keyinroq bu tartibni Rossiyaning musulmonlar ko`pchilikni tashkil etadigan hududlarga yoyishni rejalashtirgan. Rossiya FXX jamoatchilik bilan aloqa qilish markazi rahbarining aytishicha, “islom ozodligi partiyasi” (IOP) tuzilmalari mamlakatning katta qismiga tarqalgan. Uning ta`kidlashicha bu guruh noqonuniy qurolli tuzilmalar uchun odam yodlash, ularni moddiy ta`minlash bilan shug`ullangan. Bunda savdodan tushgan mablag`lardan ham foydalangan. Rossiya poytaxtida mazkur partiyaning 120 ta a`zosi qo`lga olindi. Ular asosda O`rta Osiyoliklar 120 ta a`zosi qo`lga olindi. Ular asosan O`rta Osiyoliklar edi. Qurol olib yurgani uchun ikki kishisiga nisbatan jinoyat ishi qo`zg`atildi.

Ushlanganlar orasida qirg`izistonlik Alisher Musayev, tojikistonlik Akrom Jalolovlar bor edi. Musayevning avtomobildan 100 ga yaqin portlovchi modda, ikkita RGD-5 qo`l granatasi, 1 dona F-1 gramatasi, shuningdek, 15 ta targ`ibot varaqasi topilgan. Jalolovning yonidan esa 400g ga yaqin trotil va 2 ta detonator olingan.

2002 yil 29 aprelda Bokuda “Hizbut tahrir al-islomiy”ning mahalliy shaxobchasi aʼzosi boʻlgan ozarboyjonlik 3 fuqaro qoʻlga olindi. Ular Ozarboyjon fuqarolari Yashar Mamedov, elʼ burs Allahverdiyev va Firuddin Nabiyevar qoʻlga olinib, 6 yilga qamalgan edi.

2003 yilning birinchi yarmida Qozogʻistonda ham birmuncha islomiy ekstremistik tashkilotlari aniqlandi. Jumladan Almatada Sharqiy Turkiston islom partiyasining yashirin shaxobchasi fosh etildi. Oʻsha yil may oyida qoʻlga olingan mazkur tashkilotning uch aʼzosi dan qurollar, oʻq-dori va qoʻlbola portlovchi moslamalar topildi. Ularning Afgʻoniston, Eron, Qirgʻiziston va Oʻzbekistondagi terrorchi hammaslamlari bilan aloqlari aniqlandi.

“Terrorchilik tashkilotlarining tasnifi”

- siyosiy maqsadlari
- diniy yoʻnalishi
- qanday qilib va nima uchun paydo boʻlganligi
- ijtimoiy va etnik tarkibi
- soni
- tashkiliy tuzilishi
- qayerda faoliyat yuritishini maʼqul koʻrishi
- sevimli ish usullari
- tajovuzkorlik darajasi va murosaga moyilligi

Bugungi kunda dunyoda yuzlab kuchli jihozlangan “Abu Nidol” tashkiloti, “Abu sayyof” guruhi (yaqin Sharq), “Qurollangan Islom” guruhi (Jazoir), “Al Qoida” (asos baza), (Afgʻoniston), “Al jehod” (Misr), “Jamoʻa al islomiy” (Misr), “Harakt al mujohid” (Kashmir), “Xamas” (Yaqin Sharq), “Xizbulloh” (Yaqin Sharq), “Turkiston islom partiyasi” (Markaziy Osiyo), “Falastin islom jihodi”, “falastin ozodligi fronti”, “Falastin ozodligi xalq fronti”, “falastin ozodligi xalq fronti-umumiy qoʻmondonlik”

“AUM Sinrikyo” (yaponiya, uning rahbari xibsga olingach, tashkilotning faolligi pasaydi), “Bask ozodlik harakati” “Eta” (Ispaniya), “kahane Xay” (Xitoy), “qurdiston ishchilar partiyasi” (Turkiya), “Inqilobiy xalq kurashi” (Turkiya), “inqilobiy halahsi”-ELA (Gretsiya), “17 noyabr inqilobiy tashkiloti” (Gretsiya), “Tamil Ilamani ozod qiluvchi yoʻlbarslar” (Shri-Lanka), “Mujohiddini Xald” (Eron), “Milliy ozodlik armiyasi” (Venesuela), “Kolubmiya inqilobiy qurolli kuchlari” “FARC” (Kolumbiya), “Kolumbiya oʻzining oʻzi mudofa qilish Birlashgan KUchlari”-“AUG” (Kolumbiya), “Oydin yoʻl”-“Sendero” (Peru) kabi terrorsitik guruhlar mavjud.

Yaqinda Afgʻonistonda Tohir Yoʻldoshev rahbarlik qilayotgan “Oʻzbekiston islom harakati” diniy ekstremistik tashkiloti terroristik tashkilot sifatida roʻyxatga olindi.

“Oʻzbekistonga Xavf Solayotgan Diniy ekstremistik va Terroristik Tashkilotlar”

1. “Islom uygʻonish partiyasi” (1989-1991)
2. “Adolat”, “islom lashkarlari” (1990-1992)
3. “Tavba”, “Hizbulloh” (1991-1995) Muxolif kuchlar tomonidan taʼminlanib faoliyat koʻrsatmoqda.
4. “Akromiyalar” (1997-1999) Andijonlik Akrom Yoʻldoshev (1960 yilda tugʻilgan) “Imonga yoʻl” (1992) nomoli dastur tuzgan.
5. “Vahhobiylik” (1990-1992) Diniy ekstremistik oqimning tashkiliy tizimi boʻlimish “Oʻzbekiston Islom harakati” jahonning yetakchi xalqaro terroristik tashkilotlari-“Tolibon harakati” Usoma bin Ladenning “Al-Qoida” tashkiloti. “harakat ul

Ansor”, “Al-Jihod” kabilar bilan til biriktirib, ularning bevosita rahnamoligida tashkil etilgan.

- 6. “hizbut tahrir al-islomiy” diniy ekstremistik partiyasi sunniylik doirasidagi siyosiy partiya bo`lib, 1953 yilda Quddus shahrida falastinlik Taqiyuddin Nahaboniy tomonidan tashkil etilgan.**

Terroristik Tashkilotlar Faoliyati

1995 yilning 20 martida Tokio metrosida diniy ekstremistik “AUM Sinrikyo” terorchilar tashkiloti tomonidan sodir etilgan jinoyat oqibatida 5,5 ming kishi shikastlandi.

1999 yil 16 fevralda Toshkentda sodir etilgan terrorchilik jinoyatlari natijasida 16 nafar shaxs halok bo`ldi. 130 nafar shaxsga turli darajadagi tan jarohati hamda davlatga 700 million so`mdan ortiq zarar yetkazildi.

2001 yil 11 sentyabrda AQShning Nyu-York shaxrida ro`y bergan terrorchilik harakatlarida 2000 dan ortiq kishi halok bo`ldi. Undan keyin Moskvadagi “Nord-Ost” kinokonsert zalidagi terrorchilik 200 dan ziyod begunohlar o`limiga sabab bo`lgan. Madriddagi yo`lovchi poyezd portlatilishi bularning hammasi qo`poruvchilik harakatlaridir.

Keyingi yillarda Turkiya, Falastin, isroil, Rossiya, Afg`oniston, Pokiston, Ispaniya va boshqa davlatlarda bir necha marotaba terrorchilik harakatlari sodir etilib, minglab kishilar nobud bo`ldi. 2003-2005 yillar davomida Iroqda sodir etilgan yuzlab portlashlar natijasida begunoh insonlar qurbon bo`lmoqda.

Ayniqsa, 2004 yil 1 entyabr kuni Shimoliy Osetiyaning Beslan shaxrida 30 nafar terrorchi 330 nafar o`quvchini va ularning ota-onalarini nobud qilgani butun dunyo jamoatchiligini larzaga soldi.

2005 yilning 12-13 may kunlari Andijonda “Akromiylar” deb atalgan terrorchi guruhlar tashkiloti ko`pgina begunoh odamlar umriga zomin bo`li. Ma`muriy binolar vayron qilindi. Davlat mulki va shaxsiy buyumlar talon-taroj qilindi. Ko`pgina terorchilar qo`lga olinib surishtiruv va sud ishlari davom etmoqda.

Terroristik tashkilotlarga umumiy tasnif

1.Siyosiy maqsadlari:

- imperalizm va kapitalizmga qarshi;
- globallashuv va transmilliy kompaniyalarga qarshi;
- biror diniy konfessiya yoki etnik guruhga qarshi;
- o`z hukumatiga qarshi;
- millat yoki din sogligi uchun kurashish
- ayirmachilik maqsadida va o`z davlatini tuzish uchun kurashish;
- biror dunyoqarashga qarshi (Ekologiyaning buzilishiga qaeshi va hakoza).

2.Diniy yo`nalish aslida o`z maqsadlariga erishish yo`lida dindan niqob sifatida foydalanadilar:

- soxta islom;
- soxta xristianlik;
- soxta iudaizm;
- yangi din o`ylab topish;
- dinlarni inkor etish kabilardir.

3 Kelib chiqish sabablari:

- muxolifatni siqib qo`yish
- davlatlararo ziddiyatlar
- ayirmachilik va mustaqillik uchun kurashish
- qashshoqlik va ishsizlik
- mafkuraviy bo`shliq
- tahsqi davlatlarning qo`llashi;
- globallashuvga qarshilik
- amerikacha siyosat, iqtisodiy va madaniy gegemoniyaga qarshilik;

4.Ijtimoiy tarkibi:

- asosan qishloq aholisi (kam uchraydi);
- ziyolilar va ishchilar (kam uchraydi);
- ziyolilar va talabalar (ko`p uchraydi);
- aralash tarkib (Kop` uchraydi);

5.Etnik tarkibi:

- turli millat vakillari (ko`p uchraydi);
- asosan bir etnik guruh vakillari

6.Terrorchilik guruhidagi a`zolari soni:

- 10 kishigacha kam uchraydi
- 10-50 kishi ko`p uchraydi;
- 50-100 kishi ko`p uchraydi
- 100 kishidan ortiq kam uchraydi

7. Tashkiliy tuzilishi:

- qat`iy iyerarxiya kam uchraydi;
- tashkilot bir-biridan mustaqil 5-7 kishidan iborat jangovor shaxobchalardan iborat bo`ladi.

8. Faoliyat yuritish makoni:

- bir davlat hududida biror mintaqada hatto global doirada ham faoliyat ko`rsataveradi;
- asosan shaxar sharoitida ish olib boradi;

9.Ish usullari

- jamoatchilik joylarida portlashlar sodir etish;
- mahalliy aholi vakillarini yoki horijiy fuqarolarni garovga olish;
- ekstremistik mazmundagi varaqalar tarqatish;
- siyosiy qotilliklarni amalga oshirish;
- tartibsizliklar keltirib chiqarish;
- kimyoviy va bakterologik qurollardan foydalanish;

Ayrim atamalar izohi

Terror lotincha- qo`rqitish, dahshat, tajovuz, tahlika ma`nolarini bildiradi.

Terrorizm-raqiblarni zo`ravonlik yo`li bilan yo`q qilish. Jamiyatdagi barqarorlikni yo`qotish, aholini qo`rquvga solish.

Horijiyalar arab tilida ajralishganlar ma`nosini bildiradi-islom dini tarixida birinchi ajralib chiqqan tarmoq oqimi.

Globallashuv-hozirgi dunyoning kompleksli, tizimli birligining o`shishini bildiradi.

Konfessiya lotincha- diniy, chekoviy tushunchani bildiradi. O`zbekistonda hozir 16 xil konfessiya mavjud.

Kamikadze yaponcha harbiy uchuvchi- ikkinchi jahon urushida samalyotni dushmanlarga qarshi tashlab halok bo`lgan.Hozirgi kunda terrorizmda o`zini-o`zi qurbon qilganlar kamikadze deyiladi.

Shaxid arabcha guvoh-islomda din yo`lida halok bo`lgan shaxs. Hadislarga ko`ra shaxid imonini kofirlarga qarshi urushda halok bo`lishi bilan tasdiqlaydi.

Johid arabcha g`ayrat qilish, kuchni ishga solish-din yo`lida kurash. Dastlab jihod deyilganda islomni himoya qilish va yoyish uchun kurahs tushunilgan. Hozirgi kunda xalqaro maydonda islom dini bilan niqoblangan terrorchilar jihoddan o`z manfaatlari yo`lida foydalanganlar.

G`azot-jihod

Iyerarxiya grekcha- bir butun narsa qismlari yoki elementlarning tartib bo`yicha yuqoridan pastga qarab joylahsuvi.

Terrorchilik harakati sodir etilganda:

- Befarq tomoshabin bo`lmang, oyoq ostida o`ralashib boshqalarga halaqit bermang;
- Zudlik bilan “tez yordam” ichki ishlar xodimlarini chaqiring
- Portlash joyiga bormang turli vaqt oralig`ida portlaydigan bir nechta qurilma o`rnatilgan bo`lishi mumkin;
- Tashqarida o`q ovozlari eshitilsa, deraza oynasi yoniga bormang;
- Portlash natijasida vayrona ostida qolganlarni imkoni boricha qutqaring;
- Devor ustingizgaqulab tushihsidan ehtiyot bo`ling;
- Ochilib qolgan elektr simini ushlamang;
- Buzilgan binoda to`planib qolgan gazning portlash ehtimoli borligi uchun gugurt yoki olov manbalaridan foydalanmang;
- Quyuq tutun qoplangan joyda nam ro`molcha yoki sochiqdan foydalanib nafas oling;
- Otishma chog`ida har qanday to`siqdan samarali foydalaning

O`zbekistonda Aksiterror xarakat

O`zbekistonliklar jahonda shu jumladan, Markaziy osiyo mintaqasida terrorchilik bilan bog`liq qaynoq nuqtalar borligini juda yaxshi biladilar.O`zbekiston Respublikasi bilan chegaradosh Afg`oniston va bir mintaqada joylashgan Pokiston kabi davlatlar hududida jonoyatshi-terrorchilar harbiy tayyorgarlikdan o`tib, O`zbekistonga kirishishga harakat qilayotganliklari hech kimga sir emas. Ularning maqsadi kimyoviy, bioogik qurollardan, kompyuter tarmoqlaridan foydalanib harbiy harakatlarini boshlashdir.

O`zbekiston hududida sodir etilgan bir necha terrorchilik harakatlari bunday umumiy havfga qarshi kurash markazlari ishlab turibdi. Shuningdek, ko`pgina davlat idoralari, ayniqsa, mudofaa, favqulodda vaziyatlar va ichki ishlar vazirligi, milliy xavfsizlik xizmati, chegara, bojhona va prokuratura idoralarining terrorchilikka qarshi kurashdagi faoliyati jadallashdi, bu boradagi imkoniyatlardan samaraliroq foydalanilayapti. Aholi o`rtasida hushyorlik ogohlik mazmunida tushuntirish ishlari, ommaviy tadbirlar o`tkazilayapti, ommaviy axborot vositalari orqali targ`ibot ishlari olib borilmoqda, ta`lim muassasalarida mashg`ulotlar olib borilyapti.

O`zbekiston respublikasi terrorchilikni bartaraf qilish bilan bog`liq ishlarga dunyo jamoatchiligini jalb etmoqda.

Afg`oniston va boshqa musulmon davlatlari hududidagi harbiy lagerlarda terrorchi uyushmalar bemalol tayyorgarlik ko`rayotganligidan tashvishlangan O`zbekiston davlatining rahbari xalqaro terrorizmga qarshi kurash Markazini tuzish zarurligi to`g`risidagi taklifini Yevropa xavfsizlik harakati tahskilotiga a`zo davlat va hukumatlarga MDH davlatlariga, Markaziy Osiyoda , Qirg`iziston, Tojikiston davlati rahbarlariga yetkazadi. Bu taklif Rossiya, AQSh, Xitoy kabi yirik davlatlar tomonidan xam e`tirof etildi. Terrorchilikning har qanday ko`inishlariga zarba berish, terrorchilikni qo`llab

quvvatlayotgan davlatlarga qarshi kurash olib borish jahon hamjamiyati bilan birgalikda davom ettirilmoqda.

O'zbekistonda 2000 yil 15 dekabrda "Terrorizmga qarshi kurash" qonun bilan qabul qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksining Diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm nafaqat tashqi, balki ichki havfsizlikka ham daxldor masaladir. Chunki diniy ekstremistik va terrorchilik tashkilotlari jangarilik usullari bilan hokimiyat uchun kurashuvchi guruhlarni shakllantirish, ularni har tomonlama rag'batlantirish va qo'llab quvvatlashga intiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning xavfi 1990 yilda Namangan va Andijonda, 1990-1996 yillarda Tojikistondagi fuqarolik urushi va mojarolar davomida, 1999 yilda Toshkent shahrida, 1999 yil 19- fevralda Toshkent shahrida, 1999-2001 yillari Qirg'izistonning Bodken, Ozbekistonning Surxondaryo va Toshkent viloyatida, 2004 yil mart-aprel oylarida Toshkent shahri va Buxoro viloyatida 2005 yil 12-13 may kunlari Andijon shahrida amalga oshirgan terrorchilik xarakterlari timsolida o'zini ko'rsatdi.

O'zbekiston Prezidenti I. Karimov tashabbusi bilan 1998 yilda tashkil topgan 6+2 guruhining Afg'oniston masalasini hal qilishda va Toshkent Deklaratsiyasining ahamiyati juda katta.

2001 yil 28-sentyabrda BMT ning Havfsizlik Kengashi 1373-sonli rezolyutsiyasini qabul qilib, terrorizmga qarshi kurash komitetini tuzdi.

BMT ning terrorizm va unga qarshi kurashga qaratilgan 13 ta xujjati (11 ta konvensiya va 2 ta protokol) mavjud. O'zbekiston 12 ana shunday xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qildi. Ular qatorida:

1971 yildagi fuqaro aviatsiyasining havfsizligiga tahdid soladigan noqonuniy aktlarga qarshi kurash:

1973 yildagi xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar, shu jumladan diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlar uchun jazolash va ularni bartaraf etish:

1979 yildagi garovga olish xarakterlariga qarshi kurash:

1980 yildagi yadroviy materiallarning himoyasi:

1988 yildagi dengiz kemalari xarakati havfsizligiga tahdid soladigan noqonuniy aktlarga qarshi kurash:

1997 yildagi bombaviy terrorizmga qarshi kurash:

1999 yildagi terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash xalqaro konvensiyalari borligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Yevropa Kengashi doirasida ham terrorizmga qarshi 7 ta xalqaro shartnomani imzolagan.

Keng qamrovli islohotlar- jamiyat barqaror rivojlanishining asosiy omili

Jamiyatning barqaror rivojlanishida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tadrijiy va tizimli ravishda amalga oshiriladigan islohotlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, tub, sifatii o'zgarishlarning asosini tashkil etadi.

Huquqiy davlat qurish borasida respublikamizda keng miqyosli ishlar amalga oshirilib, bu yo'nalishda katta yutuqlarga erishildi. Xalqaro andozalarga javob beradigan va millii o'zligimizni aks ettiradigan Konstitutsiya qabul qilindi. O'zbekiston inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan, jahon miqyosida e'tirof etilgan ko'plab xalqaro deklaratsiya,

konvensiya va hujjatlarga qo`shildi va shundan kelib chiqadigan siyosiy va huquqiy qoidalar respublikamizning siyosiy taraqqiyotida va huquqiy me`yoriy tizimni rivojlantirish jarayonida inobatga olinmoqda. Lekin bu borada hali muayyan muammolar mavjud. Chunki qisqa vaqt mobaynida bunday har tomonlama va chuqur o`zgarishlarni amalga oshirish uddaga qiyin. Ayni paytda, inson huquqlari va erkinliklarining qamrov doirasi kengayib, rivojlanib borayotganini va har bir mamlakatda o`ziga xos tarzda namoyon bo`layotganini ta`kidlash lozim. Tolerantlik (bag`rikenglik) munosabati barcha ijtimoiy guruhlar va shaxslar orasida amalga oshirilgan taqdirdagina dunyoviy davlat va jamiyat barpo etishi mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasiga binoan milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalar hamda jaomat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlangan. Jahon huquqshunoslik fani tajribasi asosida qabul qilingan bu qoida davlatimizda milliy va diniy asosda nizo paydo bo`lishining oldini olish uchun xizmat qiluvchi konstitutsiyaviy kafolatdir.

Jamiyat barqarorligiga to`siq bo`luvchi illatlarning yana biri terrorizmdir. Nega inson uni dunyoga keltirgan Ona Yurti, Vatani, millatiga qarshi chiqadi? Nega g`ayriinsoniy faoliyat yuritib, o`z yurtdoshlarini o`ldiradi, butun xalq mehnati bilan yaratilgan binolarni, inshootlarni vayron qiladi? Bunday vahshiyona faoliyat ko`pincha siyosiy maqsadlarda – hokimiyatni egallash uchun amalga oshiriladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bozor iqtisodiyotini shakllantirishda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, dunyoviy demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishga qaratilgan siyosiy-huquqiy hamda vatanparvarlik, milliy istiqlol g`oyasi va komil insonni shakllantirishga yo`naltirilgan ma`naviy-ma`rifiy islohotlar-yuqoridagi kabi holatlarning oldini olish, barqaror rivojlanishining asosiy omillari hisoblanadi.